XALQ DEPUTATLARI PASTDARG‘OM TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

140502, Самарқанд вилояти, Пастдарғом тумани, Жума шаҳри Хамид Олимжон кўчаси, 15-уй, тел: (8-366) 2319823

2023 - yil 28 - avgust VI-91-109-7-101-K/23 Pastdarg‘om tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq Pastdarg‘om tumanidagi nomsiz geografik obyektlarni nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq “Geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarini tartibga solish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 295-sonli qarori va O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2022-yil 21-dekabrdagi 08-11449-sonli ekspert xulosalariga asosan Pastdarg‘om tumanida **1 ta ziyoratgoh nomi, 17 ta nomsiz qabriston nomlari hamda 1 ta nomi takror kelgan ko‘cha** nomi o‘rganib chiqilib, ijobiy xulosa berildi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 24-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Quyidagilar:

Pastdarg‘om tumanidagi 1 ta ziyoratgoh nomi 1-ilovaga, 17 ta nomsiz qabriston nomlari 2-ilovaga hamda 1 ta nomi takror kelgan ko‘cha nomi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Pastdarg‘om tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish markazi (Sh.Tagaynazarov), tuman statistika bo‘limi (D.Abayev), Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi kadastr agentligining davlat kadastrlari palatasi tuman bo‘limi (O.Ismatov) ko‘rsatilgan nomlarni belgilangan tartibda statistik hisobotlarda aks ettirilishini va ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritilishini ta’minlasin.

3. Tuman ichki ishlar bo‘limi (M.Quziyev) nomlangan mahalla, ko‘cha, istirohat bog‘iga tegishli yo‘l belgilarini o‘zgartirish bilan bog‘liq tashkiliy ishlarni amalga oshirsin.

4. Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi kadastr agentligining davlat kadastrlari palatasi tuman bo‘limi (O.Ismatov), tuman qurilish bo‘limi birgalikda nomlangan joylarga belgilangan tartibda zamonaviy talablar asosida peshlavha va ko‘rsatkich belgilarini o‘rnatilishini ta’minlasin.

5. Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari – matbuot kotibi (O.Sonniboyev) mazkur qarorni “Pastdarg‘om haqiqati” gazetasida chop etilishini hamda va tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga o‘rnatilgan tartibda joylashtirilishini ta’minlasin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining qonuniylikni ta’minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (N.Dustmuradov) va tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi (B.Murodullaev) zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi **Bazarovna I. F.**

Xalq deputatlari Pastdarg‘om tuman
Kengashining
2023-yil 28-avgustdagi
VI-91-109-7-101-K/23-son qaroriga
1-ilova

Pastdarg‘om tumanidagi ziyoratgoh nomi

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni (MFY)	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan takliflar	Respublika ekspertiza komissiyasi xulosasi
1.	Ziyoratgoh	“Oshiqota” MFY	Nomsiz	Oshiqota	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq

Xalq deputatlari Pastdarg‘om tuman
Kengashining
2023-yil 28-avgustdagi
VI-91-109-7-101-K/23-son qaroriga
2-ilova

Pastdarg‘om tumanidagi qabriston nomlari

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni (MFY)	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan takliflar	Respublika ekspertiza komissiyasi xulosasi
1	Qabriston	“Temiryo‘l” MFY	Nomsiz	Koreysmozor-1	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
2	Qabriston	“Chimboy” MFY	Nomsiz	Hotamhoji-1	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
3	Qabriston	“Chimboy” MFY	Nomsiz	Hotamhoji-2	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
4	Qabriston	“Turon” MFY	Nomsiz	Koreysmozor-2	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
5	Qabriston	“Shombuloq” MFY	nomsiz	“Dovul”	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
6	Qabriston	“Yangi sanoat” MFY	nomsiz	“Davkash”	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
7	Qabriston	“Nayman” MFY	nomsiz	“Qoraxonota”	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
8	Qabriston	“Yangiobod” MFY	nomsiz	“Yangiobod”	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
9	Qabriston	“Joulqosim” MFY	nomsiz	“Mingboybobo”	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
10	Qabriston	“Hovuzak” MFY	nomsiz	“Hovuzak”	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni (MFY)	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan takliflar	Respublika ekspertiza komissiyasi xulosasi
11	Qabriston	“Kamolot” MFY	nomsiz	“Miyankov”	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
12	Qabriston	“Novchandir” MFY	nomsiz	“Enaka”	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
13	Qabriston	“Gumbaz” MFY	nomsiz	“Qovon”	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
14	Qabriston	“Olmazor” MFY	nomsiz	“Olmazor”	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
15	Qabriston	“Olmazor” MFY	nomsiz	“Boyqishloq”	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
16	Qabriston	“To‘qboy” MFY	nomsiz	“Xavos”	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
17	qabriston	“To‘rtayg‘ir” MFY	nomsiz	“To‘rtayg‘ir”	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq

Xalq deputatlari Pastdarg‘om tuman
Kengashining
2023-yil 28-avgustdagi
VI-91-109-7-101-K/23-son qaroriga
3-ilova

Pastdarg‘om tumanidagi ko‘cha nomi

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni (MFY)	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan takliflar	Respublika ekspertiza komissiyasi xulosasi
1.	ko‘cha	“Esaboy” MFY	Marhamat	Mang‘itlar	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq